

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi Baxromova
Shohsanamning 3-4-sonli talabalar turar joyidagi navbatchilik

HISOBOTI

№ 1

15.10.2025

Navbatchi:

Sh.Baxromova

TTJ Tarbiyachi pedagog:

N.Shukurov

Qatnashdi :

81-nafar talaba qizlar

Davra suhbatida ko'rilgan masala

1. "Sarishtali qiz-farishtali qiz"

2025-yil 15-oktyabr kuni Sariosiyo tumanidagi 3 va 4-sonli talabalar turar joyida talabalar bilan Tarbiyachi pedagog N.Shukurov, o'qituvchi M.Raxmonova va navbatchi o'qituvchi Baxromova Shohsanam Ibadullayevna tomonidan "Sarishtali qiz-farishtali qiz" mavzusida suhbat o'tkazildi. Suhbat davomida qizlarga oshxonalarni, yotoqxonalarni toza va ozoda tutish, gigiyena qoidalariga rioya qilish haqida navbatchi o'qituvchi Baxromova Shohsanam Ibadullayevna maslahatlar berdi.




Qizlar tarbiyasi har bir onaning, har bir ilimli va ma'rifatli ayolni oliy maqsadlaridan biri hamda burchi va vazifasi hisoblanadi. Ozodalik insonning ko'rki, tozalik bor joyga baraka keladi. Xalqimizda xar tong ko'chamiz kelinlari-

yu, qizlari barvaqt turib supurishni boshlashadi. Ostonamizdan tortib, katta yo'lga chiqqunga qadar hamma tomon supurib sidirilgan, suv sepilgan. Kattalarning aytishicha, to'plangan chiqindi bexosiyat bo'lib, imkon boricha uni inson nazari tushmaydigan joyga, usti yopilgan holda idishlarga tashlash lozim.



Ustozlar tomonidan qizlarning xonalari va oshxona tozaligi nazorat qilinib kerakli ko'rsatmalar berildi.



4-sonli talabalar turar joyida bir nafar qizni mazasi yo'qligi uchun uning holidan xabar olindi va kerakli yordam ko'rsatildi.



Talabalar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida, talabalar turar joyida turli xildagi mashg'ulotlar, ko'ngilochar tadbirlar tashkillashtirildi.

Ushbu dargohda qizlar nafaqat ma'lum bir yo'nalish asosida kasbga, balki hunarga ham ega bo'lishlari zarur.

Navbatchi :

Tarbiyachi pedagog:

Sh.Baxromova

N.Shukurov